



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

## 2026-YIL

IYUN/6-SON, III-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
III-qism*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdulkarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

SUD BOSHQARUVCHILARI FAOLIYATINING IQTISODIY RAG'BATLANTIRISH TIZIMI VA ULARNING SUBSIDIAR JAVOBGARLIGI: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	12
<b>Soliyev Damirjon Nurmatovich</b>	
BLOKCHEYN TEKNOLOGIYASI ASOSIDA MOLIVAVIY TRANZAKSIYALARNI NAZORAT QILISH TIZIMI (SMART-KONTRAKTLAR, MARKAZLASHMAGAN MA'LUMOTLAR BAZASI VA AUDIT IZLARI) .....	18
<b>Olimova Mukhlisa Vohidjon qizi</b>	
SANOAT SEKTORIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH: STRATEGIK AFZALLIKLAR VA TO'SIQLAR TAHLILI .....	26
<b>Xatamov Ochildi Qurbonovich</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ .....	32
<b>PhD. Юлдашева С.Ш</b>	
TREND MODELLARI YORDAMIDA MEHNAT RESURSLARI SONINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH .....	38
<b>Haydarova Dinora Atamurot qizi</b>	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫКУПА И ПРОДАЖИ КВОТ НА ОРОСИТЕЛЬНУЮ ВОДУ .....	43
<b>Гоженко Борис Владимирович</b>	
MOLIVAVIY LEVERIJ SAMARASI VA QARZ MABLAG'LARINI BOSHQARISHDA UNDA FOYDALANISH .....	50
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
XIZMATLAR SOHASIDA WEBMONEY TO'LOV TIZIMINI KOMPYUTERDA O'RNATISH VA SOZLASHNING IQTISODIYOTDAGI ROLI .....	55
<b>Fazilat Esirgapovna Jomonqulova</b>	
<b>Nizomov Murod</b>	
<b>Qurbonboyeva Rayhon Bahronjon qizi</b>	
MECHANISMS FOR THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF A HEALTHY LIFESTYLE .....	58
<b>Shukhrat Mashrabboevich Mamadaliyev</b>	
BANK SEKTORIDA OPERATSION SAMARADORLIK VA XAVFLARNI BOSHQARISHNI BAHOLASH .....	62
<b>R.I.Rashidov</b>	
<b>A.N. Elmurodov</b>	
<b>A.A. Muhiddinov</b>	
TRANSFORMING ECONOMIC GOVERNANCE IN UZBEKISTAN THROUGH DIGITAL PUBLIC SECTOR TOOLS .....	68
<b>Bokhodirov Boriykhon Boburovich</b>	
<b>Bahromjon Urmanov</b>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA VA KREDIT SALOHİYATINI BOSHQARISH .....	74
<b>Ergashova Nilufar Sobirovna</b>	
DEHQON XO'JALIKLARIDA QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRINING SHAKLLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR .....	80
<b>Azizov Shohsuvor Yuldashevich</b>	
VERTIKAL INTEGRATSİYALASHGAN BANK TUZILMASINI "YAGONA MFO" TEKNOLOGIYASI ASOSIDA TRANSFORMATSIYA QILISH SXEMASI .....	84
<b>Qo'shboqov Doniyorbek Maxramqulovich</b>	



O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA "YASHIL EKOTIZIM" VA RESURS SAMARADORLIGI (RECP)NI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI HAMDA EMISSIALARNI KAMAYTIRISH SAMARADORLIGI.....	90
<b>Do'stqobilov Ulug'bek Ibrohimovich</b>	
TURIZM SOHASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINING MAZMUN VA MOHIYATIGA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR .....	94
<b>Pardayeva Ozoda Mamayunusovna</b>	
СНИЖЕНИЕ ТЕХНИЧЕСКИХ И КОММЕРЧЕСКИХ ПОТЕРЬ ЭЛЕКТРОЭНЕРГИИ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ СЕТЕЙ УЗБЕКИСТАНА .....	100
<b>Маърупова Дилсора Абдулла кизи</b>	
O'ZBEKISTON QURILISH SOHASIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING INSTITUTIONAL SHART-SHAROITLARI.....	105
<b>Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li</b>	
АКАДЕМИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ОСОБЕННОСТИ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ .....	113
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
<b>Рахматуллаев Алижон</b>	
<b>Сайфитдинов Азизжон</b>	
G'AZNACHILIK OPERATSIYALARINING BANKLIKVIDLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI (SILICON VALLEY BANK MISOLIDA).....	119
<b>Axadov Shahboz Shuxrat o'g'li</b>	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТВЁРДЫМИ БЫТОВЫМИ ОТХОДАМИ В Г. ТАШКЕНТЕ: ОТ ПОЛИГОННОГО ЗАХОРОНЕНИЯ К РЕСУРСНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМУ ИСПОЛЬЗОВАНИЮ .....	127
<b>Джусупов Кубанычбек</b>	
STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI AXBOROT TA'MINOTINING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	133
<b>Umidjon Kostayev</b>	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR TEACHING STUDENTS OBJECTORIENTED PROGRAMMING IN A VIRTUAL COLLABORATIVE ENVIRONMENT USING GENERATIVE ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS .....	140
<b>Saidova Dilfuza Ergashovna</b>	
AUDIT SIFATI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH .....	145
<b>Muydinov Erkin Jamaldinovich</b>	
THE ROLE OF E-COMMERCE IN ECONOMIC DEVELOPMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN'S DIGITAL TRANSFORMATION.....	152
<b>Shakhriddinova Sitora Tolibjon kizi</b>	
THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN.....	157
<b>Yorkin Ziyodullaev</b>	
<b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
РОЛЬ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В ЗЕЛЕНОМ РОСТЕ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	166
<b>Мохамед Эйд Али Балбаа</b>	
<b>Усманова Азиза Алишеровна</b>	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI.....	173
<b>Shakirxodjaeva Zuxraxon Rustamxanovna</b>	
BARQAROR RIVOJLANISH HISOBOTLARINI TUZISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	180
<b>Menglikulov Baxtiyor Yusupovich</b>	



THE IMPACT OF SUSTAINABILITY PRACTICES IN THE AGRICULTURAL INDUSTRY IN UZBEKISTAN .....	184
<b>Yorkin Ziyodullaev</b> <b>Munisa Bekmirzaeva</b>	
TASTE OF PLACE: HOW LOCAL-INGREDIENT SOURCING AFFECTS GUEST SATISFACTION AND MENU PROFITABILITY IN HOTEL RESTAURANTS .....	193
<b>Bahodirova Durdona</b> <b>Atametova Sevara</b>	
INTERACTIONS IN CREATIVE TOURISM: RESIDENTS' PERSPECTIVES IN UZBEKISTAN.....	198
<b>Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna</b> <b>Jasmin Raxmidinova</b>	
XO'JALIK YURITUVCHISUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI .....	204
<b>Bauyetdinov M.J.</b>	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA MINTAQA TABIIY RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI (BUXORO VILOYATI MISOLIDA) .....	212
<b>Safarov Otabek Abduhamidovich</b>	
SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI.....	218
<b>O'rinov Akmaljon Axmadjonovich</b>	

# SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINING NAZARIY JIHATLARI



**O'rinov Akmaljon Axmadjonovich**  
Farg'ona davlat universiteti  
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.  
ORCID: 0009-0008-2940-8428

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsion-investitsion faoliyatning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Innovatsiyalarni joriy etish hamda investitsiya resurslaridan samarali foydalanishning korxonalar faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion-investitsion jarayonlarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida ushbu faoliyatning raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirishdagi roli asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsion-investitsion faoliyat, iqtisodiy rivojlanish, samaradorlik, modernizatsiya, yangilanish, nou-xau, rentabellik, iqtisodiy o'sish.

**Abstract:** This article highlights the role and significance of innovation and investment activities in economic development. The impact of innovation implementation and the efficient use of investment resources on enterprise performance is analyzed. In addition, the main directions for the development of innovation and investment processes are examined. The study substantiates the role of these activities in enhancing competitiveness and improving efficiency.

**Keywords:** innovation, innovation and investment activity, economic development, efficiency, modernization, renewal, know-how, profitability, economic growth.

**Аннотация:** В данной статье раскрыты роль и значение инновационно-инвестиционной деятельности в экономическом развитии. Проанализировано влияние внедрения инноваций и эффективного использования инвестиционных ресурсов на деятельность предприятий. Также рассмотрены основные направления развития инновационно-инвестиционных процессов. В результате исследования обоснована роль данной деятельности в повышении конкурентоспособности и эффективности.

**Ключевые слова:** инновация, инновационно-инвестиционная деятельность, экономическое развитие, эффективность, модернизация, обновление, ноу-хау, рентабельность, экономический рост.

## KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlariga innovatsion loyihalarni joriy etishni jadallashtirish, xususan, sanoat korxonalarini tomonidan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, boshqaruvga oid innovatsiyalardan ishlab chiqarish faoliyatida keng foydalanish va yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishish, shuningdek, milliy iqtisodiyotning innovatsion salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarga ustuvorlik qaratilib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz" [1], deb aytgan fikrlari



keyingi yillarda mamlakatimizda milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, sanoat korxonalarini innovatsion boshqaruvining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishning uslubiy asoslarini tadqiq etish dolzarb va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klassik iqtisodiy adabiyotlarda “innovatsiya” atamasiga ko‘plab mualliflik ta’riflari berilgan bo‘lib, lotincha “innovation” so‘zidan olingani holda, yangilash, o‘zgartirish kiritish degan ma’noni anglatadi. Ushbu atama iqtisodiy adabiyotga ilk bor Y. Shumpeter tomonidan kiritilgan bo‘lib, olim innovatsiya iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha mualliflik ta’rifini beradi: “yangi turdagi iste’mol tovarlari va xizmatlari, jumladan, korxonalarining egallagan bozor hajmini oshirishda yangi shakldagi ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish amaliyotini tashkil etish, yangi turdagi transport vositalaridan foydalanishi yoki ularni amaliyotga tatbiq etilish innovatsiya deb baholanadi” [2].

Yana bir iqtisodchi olim E. Dandon o‘z izlanishlarida korxonalar boshqaruvi jarayonida innovatsiyaning kreativlik, strategiya, amalga oshirish (realizatsiya) va foydalilik kabi tarkibiy komponentlarga ega bo‘lishini ajratib ko‘rsatadi [3].

A.N. Xramtsova va A.A. Axmatovalar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda korxonalar boshqaruvi jarayonida innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yoritishda iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan ta’riflarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin bo‘ladi:

- innovatsiya iqtisodiy kategoriyasining mazmunini yangilik, nou-xau bilan bog‘liq holda tushuntirish;
- innovatsiyaning mazmunini yoritishda yangi bir mahsulotni ishlab chiqarish, jumladan, uning texnik va texnologik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan butun bir jarayon sifatida tushuntirish;
- innovatsiya mazmunini yoritishda yangi g‘oya va fikrlarni amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, yangi shakldagi takomillashtirilgan mahsulot ishlab chiqarishni harakatga keltiruvchi kuch sifatida baholash [4].

Mahalliy olimlarimizdan Sh.N. Zaynutdinov [5], A.A. Madaliyev [6], D. Shodiyev [7], N.M. Rasulov [8], Sh.G. Akramova [9], O.E. Ernazarov [10], E. Shodmonov, D. Bababekov, B. Tursunov [11] kabi olimlarimiz o‘z tadqiqotlarini olib borishgan. Ushbu mahalliy olimlarimizning ilmiy tadqiqotlari sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv samaradorligini oshirish jarayonida yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan talab, xususan, sanoat korxonalarining boshqaruvi samaradorligini oshirishda innovatsion ishlanmalardan foydalanishning uslubiy jihatlari o‘rganishgan.

Klassik iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, korxonalar boshqaruvida innovatsiyalardan foydalanish amaliyotini yanada kengaytirish, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion loyihalarni amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tahlil va sintez usuli, abstraksiya usuli, induksiya va deduksiya usullari, qiyosiy tahlil usuli, iqtisodiy-matematik usullar hamda empirik tahlil usulidan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tashqi bozorga chiqish korxonalaridan raqobat muhitiga moslashishni talab etadi va o‘z mahsulotlariga (brendiga), mavqeiga va o‘rniga ega bo‘lishni anglatadi. Bozorlar mahsulot bilan g‘oyat to‘yingan, taklif talabdan ustun bo‘lgan hozirgi sharoitda har bir ishlab chiqaruvchi iste’molchi ehtiyojlariga mos mahsulot taklif etishga intiladi. Xaridorning ayrim ehtiyojlari teng yoki qisman o‘zgaradigan sharoitlarda bir xil yoki har xil mahsulotlar ayni bir paytda taklif etiladi. Bunday sharoitda iste’molchi o‘zining mablag‘iga qarab, ehtiyojni ko‘proq va yuqori darajada qondiradigan tovarni tanlaydi.

Agar mahsulot narxi va sifati iste’molchi talablariga mos kelmasa, korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi pasayishi mumkin. Shunday ekan, har qanday korxonalar, qolaversa, mamlakat raqobat muhitida o‘z o‘rni va mavqeini yo‘qotmasdan saqlab qolishi, kelgusi istiqbolini yaratish uchun innovatsion faoliyatga e’tibor qaratishi hamda uni rivojlantirishga urinishi lozim.

Har qanday korxonalar innovatsion faoliyatining natijasi muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan uni moliyalashtirish manbalarini va usullarini aniqlashga bog‘liq. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirish manbalari bo‘lib davlat, turli korxonalar, moliya-sanoat guruhlari, kichik biznes korxonalarini, investitsiya va innovatsiya



jamg'armalari, mahalliy boshqaruv organlari, jismoniy shaxs va boshqalar hisoblanadi. Ularning barchasi xo'jalik yuritish jarayonida ma'lum darajada ishtirok etib, innovatsion faoliyatning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi [12].

Sanoat korxonalarida innovatsion faoliyatni moliyalashtirishning yaxshi asoslangan tizimini yaratish, moliyaviy mablag'larni jamg'arish va innovatsion harakatlar uchun sarflashga sharoit yaratadi [13].

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishni tashkillashtirish tamoyillari, avvalo, ularning moliyalash manbalarining ko'pligiga va turli-tumanligiga, moliyaviy foydaning o'sishini ta'minlay oladigan innovatsiyalarni moliyalashtirishga asoslanadi.

#### **Innovatsion faoliyat samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi:**

Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish va yuksak darajadagi iqtisodiy o'sishni ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Tajribalardan ma'lumki, barcha tarmoqlarda va ular tarkibidagi korxonalarda innovatsion faoliyatning rivojlanganligi mamlakat iqtisodiyotning tashqi va ichki xatarlarga moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, innovatsiya faoliyati ma'lum darajada xarajatlarni talab etadi va jiddiy xavf-xatarlarga moyil bo'ladi. Bunday holat korxonalar innovatsion faoliyati uchun uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, korxonalar innovatsion faoliyati muhim ahamiyatga ega hisoblanadi [11].

Innovatsion salohiyatning umumiy iqtisodiy samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish mumkin:

$$E_T = \sum_{t=0}^{Tr} (P_t - Z_t) * a_t$$

Bu yerda

$Tr$  – kelgusi davr;

$P_t$  –  $t$  – yil natijasi

$Z_t$  –  $t$  – yilda innovatsiyalar uchun xarajat

$a_t$  – diskontirlangan ko'effitsiyent.

Integral samaradorlikni boshqacha, sof diskontlangan daromad, sof hozirgi qiymat yoki sof kamaytirilgan qiymat deb ham atalishi mumkin.

Innovatsiyalar rentabelligi indeksi  $J_R$ , buni daromad yoki foyda indeksi deb atash ham mumkin. Daromadlilik indekslarini hisobot davridagi qilingan daromadlarning qaytarilgan qiymat indeksi hisobiga nisbati quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$J_R = \sum_{t=0}^{Tr} D_j * a_t / \sum_{t=0}^{Tr} K_t * a_t$$

$J_R$  – rentabellik indeksi

$D_j$  –  $t$  – davr daromadi

$K_t$  –  $t$  – davrda innovatsiyalarga qilingan investitsiyalarning miqdori

**Agar integral samaradorlik** —  $E_i$  — ijobiy bo'lib, rentabellik indeksi  $J_R > 1$  bo'lsa, bu ikki ko'rsatkich bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi.  $J_R > 1$  da innovatsion loyiha iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi. Aksincha, loyiha rentabellik indeksi  $J_R < 1$  samarasiz deb hisoblanadi.

Rentabellik me'yori ER. Bir necha yillar uchun diskontlangan daromadlarning qiymati innovatsion investitsiyalarga tenglashtirilgan chegirmalarning stavkasini aks ettiradi. Bunday holda innovatsion loyihalarning daromadlari va xarajatlari hisoblangan vaqtga to'g'ri keladi.



$$D = \sum_{t=0}^T \frac{Dt}{(1 + E_r)^2} \quad K = \sum_{t=0}^T \frac{K_t}{(1 + E_r)^t}$$

$D$  – yillik pul daromadi

$K$  – innovatsiyalarga qilingan dastlabki investitsiyalar

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining hozirgi rivojlanishi innovatsiya, yangi texnika va texnologiyalarning ishlab chiqarishga tatbiq etishga bog'liq bo'lib, bu insoniyat taraqqiyoti hamda nazariy-amaliy bilimlar bog'liqligi bilan amalga oshiriladi.

Innovatsiyalarni alohida korxonalar va qolaversa butun iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishiga qay darajadagi ta'sirini chuqur o'rganish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir[11].

#### Innovatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish.

Milliy iqtisodiyotni innovatsion salohiyati, korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarga doimiy tarzda yangi o'zgartirishlar kiritilishiga, yangi mahsulotlar yaratilishiga, iste'molchilar talablarini qondirish uchun ilmiy-texnik taraqqiyotning eng yangi yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etilishida namoyon bo'ladi. Bularning barchasi bozordagi mavjud mavqeni ushlab turish, korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuviga imkoniyat beradi.



1-rasm: Innovatsion mahsulotlar, ishlanmalar va xizmatlarning samaradorlik turlari[11].

Innovatsion salohiyat iqtisodiy rivojlanishni ilmiy-texnikaviy yoki ishlab chiqarish jarayonini amaliy jihatdan tubdan yangilash va takomillashtirishning asosiy omili ekanligidan kelib chiqqan holda, fundamental ilmiy tadqiqotlar asosan iqtisodiyot tarmoqlarini samarali rivojlantirish bo'yicha tegishli iqtisodiy siyosatga asoslangan holda olib borilishi maqsadga muvofiq. Innovatsion faoliyat yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish,



mavjudlarini rag'batlantirish hisobiga yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va xizmatlarni ko'rsatishni tashkil etishda o'z ifodasini topadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonidan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkinki, sanoat korxonalarini rivojlantirish jarayonida innovatsion-investitsion faoliyatning muhim jihati bu korxonalar samaradorligida o'z aksini topishidir. Innovatsion-investitsion faoliyat iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu faoliyat yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Investitsiyalar innovatsion loyihalarni moliyalashtirish orqali korxonalarining rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Innovatsiyalar esa mavjud resurslardan yanada samarali foydalanish imkonini yaratadi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari kamayib, korxonaning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi. Innovatsion-investitsion faoliyat mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratilishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va investitsion muhitni yaxshilash barqaror iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartlaridan biridir. Umuman olganda, innovatsion-investitsion faoliyat uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish va yuqori samaradorlikka erishishning asosiy vositasi hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – 2020-yil 24-yanvar. – URL: <https://uza.uz/uz/posts/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982. – 455 с.

Дандон Э. Инновации: как определять тенденции и извлекать выгоду. – М.: Вершина, 2006. – 304 с.

Храмцова Н.А., Ахматова А.А. Теоретические основы управления инновационной деятельностью предприятия // Стратегии бизнеса. – 2018. – № 10 (54). – С. 18–22.

Zaynutdinov Sh.N., Rasulov N.M. Innovatsion menejment: darslik. – T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 540 b.

Mamadaliyev A.A. Iqtisodiyotni boshqarishda inson omilini faollashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmidan foydalanishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2017. – 28 b.

Shodiyeva D. Milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini investitsiyalashning nazariy asoslarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – 58 b.

Rasulov N.M. Korporativ tuzilmalarda innovatsion jarayonlarni strategik boshqarish uslubiyotini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2021. – 81 b.

Akramova Sh.G. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyot shakllanishi sharoitida inson kapitalining rivojlanishi: monografiya. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 180 b.

Ernazarov O.E. Innovatsiyalar asosida sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2020. – 60 b.

Shodmonov E.Sh., Bababekova D.Sh., Tursunov B.O. Korxonalar iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish: darslik. – T., 2019. – 525 b.

Астапов К. Инновации промышленных предприятий и экономический рост // Экономист. – 2002. – № 6. – С. 44–51.

Ильдяков А.В. Проблемы финансирования инновационной деятельности предприятия // Современные исследования социальных проблем. – 2012. – № 1.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>